

YANGI O'T HAYDOVCHI YIG'MA TARKIBIDAGI ASKORBIN KISLOTASINI YUSSX USULIDA TAHLILI

Mexriddinova Yu.E.¹

Farmanova N.T.²

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti, farmakognoziya fa farmatsevtik texnologiya
kafedrası 2-kurs magistratura rezidenti, mehriddinovayulduz@gmail.com


Toshkent farmatsevtika instituti, farmakognoziya kafedrası mudiri, kimyo fanlari
doktori, professor, farmanovan70@mail.ru
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14709491>

Dolzarlili. Vitaminlar inson tanasining normal ishlashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan organik birikmalardir. Ular metabolik jarayonlarda muhim rol o'ynaydi, immunitet tizimini mustahkamlaydi va hujayra o'sishi va rivojlanishiga yordam beradi. Proteinlar, yog'lar va uglevodlar kabi makronutrientlardan farqli, vitaminlar juda oz miqdorda talab qilinadi, ammo ularning etishmasligi jiddiy sog'liq muammolariga olib kelishi mumkin. Vitaminlarning asosiy manbalari o'simliklar hisoblanadi. Shuni inobatga olib, dorivor o'simlik xom ashyosini kimyoviy tarkibini o'rganib yangi vitamin saqllovchi manbalarni tavsiya etish dolzarbdir.


Ishning maqsadi. Yangi o't haydovchi yig'ma tarkibidagi askorbin kislotasini YUSSX usulida tahlil qilish.

Material va usullar. Tahlil uchun mahalliy xom ashyo, ya'ni itburun na'matagi mevasi, ekma suli mevasi va dorivor qoqio't ildizidan tayyorlangan yig'ma olindi. Askorbin kislotasini miqdori yuqori samarali suyuqlik xromatografiya (Agilent Technologies (AQSH) 1260 seriya, "Chemstation 09.03.a") dasturiy ta'minotli, gradiyent nasosi, spektrofotometrik detektor bilan (ustun 4,6 x 150 mm, Zorbax Eclipse C-18 sorbent -5 mkm) usuli yordamida aniqlandi. Mobil faza (A) va metanol (B). Aniqlash jarayoni 270 nm to'lqin uzunlikida amalga oshirildi. Elyuyent oqimi tezligi - 1 ml/daq, ineksiya qilingan namuna hajmi- 20 mkl, xromatografiya harorati- 35°C. Tahlil davomiyligi -10 daqiqa.

Natijalar. Askorbin kislotasi standart namunasi va tekshiruvchi ajiratma xromatogrammasi 1- va 2- rasmlarda keltirilgan.



1- rasm. Askorbin kislotasi standart namunasining YuSSX xrommatogrammasi



2-rasm. Tekshiriluvchi namunaning YuSSX xrommatogrammasi

Yuqorida keltirilgan xrommatogrammalardan koʻrinib turibdiki, tekshiriluvchi ajratma tarkibida askorbin kislotasi (RT 2.061) borligi aniqlandi.

Xulosa. Ilk bor mahalliy xom ashyo asosidagi yangi tarkibli oʻt haydovchi yigʻmani tarkibida askorbin kislotasini YuSSX usulida oʻrganildi.